TASAVVUF MANBALARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Fazliddinova Aziza Fazliddin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasavvuf manbalarida ta'lim-tarbiya masalalari va ularning rivojlanishi yoritiladi. Tasavvuf manbalarining o'ziga xosligi shundaki, ularda tarbiya bevosita nasihat shaklida emas, balki hikmat, ramz, timsol va hayotiy misollar orqali beriladi. Ahmad Yassaviyning XII asrda yozilgan "Devoni Hikmat" asari, Imom al-G'azzoliy o'zining mashhur **"Ihyo ulum ad-din"** Alisher Navoiy o'zining **"Mahbub ul-qulub"** asarlarida ta'lim-tarbiya jarayoni muhokama qilingan.

Kalit so'zlar:Tasavvuf,tarbiya,timsol,inson komoloti,axloqiy rejim,ota-ona,mehr-muhabbat, mas'uliyat, sabr va tirishqoqlik fazilatlari, yomon odatlardan saqlash, uni sabr va shukrga o'rgatish, ruhiy poklanish jarayoni.

KIRISH. Tasavvuf manbalarida inson tarbiyasi masalasi, ayniqsa bola tarbiyasi, ma'naviy kamolotning asosiy poydevori sifatida qaraladi.Tasavvufiy qarashlarga ko'ra, bola – bu "sof fitrat" egasi bo'lib, uning qalbi hali hech qanday illat bilan qoralanmagan bo'ladi. Shu sababli tarbiya jarayoni aynan bolalik davridan boshlanishi zarur deb hisoblanadi.Tasavvufiy manbalarda bola tarbiyasi masalasiga yondashuv faqat diniy-axloqiy doira bilan cheklanib qolmay, balki adabiy va falsafiy merosda ham keng yoritilgan. Shuningdek tasavvufiy manbalarda ilm va amal uyg'unligi masalasi ham markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Ko'plab mutasavviflar insonning komillikka erishishi faqat nazariy bilim bilan emas, balki uni amalda qo'llash orqali yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Shu bois tasavvuf manbalarida tarbiya jarayoni insonning kundalik hayoti, mehnati, odob-axloqi va jamiyatdagi faoliyati bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi.

Asosiy qism. Ahmad Yassaviyning XII asrda yozilgan "Devoni Hikmat" asarida[1] tasavvufiy g'oyalar sodda, xalqona tilda bayon qilinadi. Bu asar orqali tasavvuf ta'limoti keng ommaga yetkazilib, axloqiy tarbiya vositasi sifatida xizmat qilgan. Asarda hikmat janri orqali insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy poklanishi, sabr-qanoat, halollik, Allohga muhabbat va jamiyat oldidagi mas'uliyat masalalari sodda tilda bayon qilingan. Ushbu asarning asosiy ilmiy ahamiyati shundaki, unda tarbiya nazariy emas, balki hayotiy tajriba va xalqona hikmatlar orqali berilgan bo'lib, bu uni kuchli pedagogik manbaga aylantiradi.

Imom al-G'azzoliy o'zining mashhur **"Ihyo ulum ad-din"**[2] asarida bola qalbini "bo'sh va sof yer"ga qiyoslaydi va unda qanday urug' ekilsa, o'sha hosil chiqishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bola yomon muhitdan himoya qilinishi va yaxshi muhitga yaqinlashtirilishi lozim, chunki tarbiya insonning butun hayot yo'lini belgilaydi. Shuningdek, ushbu asarda bolaga odob, halollik va ibodatni o'rgatish ota-onaning eng muhim vazifasi ekanligi qayd etiladi. Asarda bola tarbiyasi bosqichma-bosqich jarayon sifatida izohlanadi. **"Ihyo ulum ad-din"** asarida bu jarayon uch bosqichga bo'linadi:

[1] Ahmad Yassaviy. *Devoni Hikmat.* – Toshkent: G'afur G'ulom, 1992. – B. 25–30.
[2] Abu Hamid al-G'azzoliy. Ihyo ulum ad-din (tanlangan boblar o'zbek tiliga tarjima qilingan). – Toshkent: Movarounnahr, 2010. – B. 78–82.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ilk yoshda taqlidiy o‘rganish, keyingi bosqichda odob-axloqni shakllantirish va kattalik davrida mas’uliyatni anglash. Bu tasnif bola tarbiyasining uzluksiz jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tasavvufiy qarashlarda ota-onaning xulqi bola tarbiyasida hal qiluvchi omil hisoblanadi. G‘azzoliy “ota-ona o‘zini isloh qilmasa, farzandni isloh qila olmaydi” degan mazmundagi fikrni ilgari suradi. Bu fikr tarbiyada shaxsiy namuna eng kuchli vosita ekanligini bildiradi.

Tasavvuf ta’limotida bola tarbiyasida axloqiy poklik birinchi o‘ringa qo‘yiladi. **“Ihyo ulum ad-din”** asarining “Riyozat an-nafs” bobida G‘azzoliy bola qalbini yomon odatlardan saqlash, uni sabr va shukrga o‘rgatish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, tarbiya faqat bilim berish emas, balki ruhiy poklanish jarayonidir.

Ahmad Yassaviy ta’limotida ham bola tarbiyasi ma’naviy poklik va nafsni jilovlash bilan chambarchas bog‘lanadi. Uning **“Devoni hikmat”** asarida[3] inson bolali kdan boshlab halollik, sabr va Allohga muhabbat ruhida tarbiyalanishi kerakligi qayta-qayta uqtiriladi. Jumladan, hikmatlarda nafsga berilmaslik va dunyoviy manfaatlardan ustun turish g‘oyasi bola tarbiyasining asosiy yo‘nalishi sifatida ko‘rsatiladi.

Yassaviy hikmatlarida bola qalbi “oq qog‘oz”ga o‘xshatiladi va unga qanday ma’naviy yozuv yozilsa, shunday shaxs shakllanishi ta’kidlanadi. Bu g‘oya tasavvufiy tarbiyada muhit va murabbiyning rolini nihoyatda muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Tasavvuf manbalarida mehnat tarbiyasi ham bola kamolotining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bahouddin Naqshband ta’limotiga oid manbalarda “Dil ba yoru, dast ba kor” tamoyili orqali inson qalban Allohga bog‘langan holda amalda mehnat bilan shug‘ullanishi lozimligi ta’kidlanadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, bola yoshligidan mehnatga o‘rgatilsa, unda mas’uliyat, sabr va tirishqoqlik fazilatlari shakllanadi. Naqshbandiylik ta’limotida keltirilishicha, mehnatsiz ma’naviyat to‘liq bo‘lmaydi. Shuning uchun bola tarbiyasida faqat diniy bilim emas, balki amaliy hayotiy ko‘nikmalar ham muhim ahamiyatga ega.

Tasavvufiy manbalarda bola tarbiyasi masalasiga yondashuv faqat diniy-axloqiy doira bilan cheklanib qolmay, balki adabiy va falsafiy merosda ham keng yoritilgan. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida inson kamoloti, farzand tarbiyasi va axloqiy shakllanish masalalari chuqur tahlil qilingan. Alisher Navoiy o‘zining **“Mahbub ul-qulub”** asarida[4] farzand tarbiyasini ota-ona zimmasidagi eng muhim mas’uliyatlardan biri sifatida ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, farzandning odobli, ilmli va ma’naviy yetuk bo‘lib yetishishi avvalo oiladagi tarbiya muhitiga bog‘liqdir. Navoiy bu asarda farzandga erta yoshdan odob, hurmat va rostgo‘ylikni singdirish zarurligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida inson kamoloti va axloqiy tarbiya masalalarini tasavvufiy ruhda yoritadi. Asarda u insonni yuksaltiruvchi asosiy omil sifatida **ilm va odob**ni ko‘rsatadi. Bola tarbiyasida ilm olish faqat bilim emas, balki axloqiy poklanish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv tasavvufiy tarbiya g‘oyalari bilan uyg‘unlikda shakllangan. Navoiyning fikricha, bola tarbiyasida eng muhim omillardan biri — **namuna (o‘rnak) orqali tarbiya**dir. U “Mahbub ul-qulub”da[5] ota-onaning xulqi farzandga bevosita ta’sir qilishini, bola

---

[3] Ahmad Yassaviy. *Devoni hikmat*. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 33.
[4]Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*.–Toshkent: G‘afur G‘ulom,2015. –B. 45
[5] Alisher Navoiy. *Hayrat ul-abror*. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 112.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ko'pincha eshitganidan ko'ra ko'rganini tezroq o'zlashtirishini alohida ta'kidlaydi. Shu sababli tarbiyachi avvalo o'zini isloh qilishi lozimligi g'oyasi ilgari suriladi.

Tasavvufiy ruhdagi Navoiyning qarashlarida **mehr va muhabbat tarbiyasi** ham muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, qattiqqo'llikdan ko'ra mehr bilan berilgan tarbiya bola qalbida barqaror axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Bu g'oya "Mahbub ul-qulub"da inson qalbini yumshatish va uni ezgulikka yo'naltirish orqali izohlanadi. Bundan tashqari, Navoiy asarlarida bola tarbiyasida **kitobxonlik va ilmga muhabbat**ni shakllantirish g'oyasi ham ilgari suriladi. "Hayrat ul-abror"da ilm egallash insonni jaholatdan qutqaruvchi asosiy vosita sifatida ko'rsatiladi. Bu qarash tasavvufiy ta'limotdagi "ilm – qalb nuridir" g'oyasi bilan uyg'unlashadi. Alisher Navoiy qarashlari tasavvufiy tarbiya tizimini yanada boyitadi. Uning asarlarida bola tarbiyasi axloq, ilm, mehr, namuna va ma'naviy poklik asosida shakllanadigan murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv tasavvuf manbalaridagi tarbiya g'oyalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bugungi ta'lim-tarbiya jarayoni uchun ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tasavvuf manbalari orasida Najmuddin Doyaning "Mirsod ul-ibod" [6]asari ham alohida ilmiy qimmatga ega. Mazkur asarda insonning ruhiy kamolot yo'li, nafs tarbiyasi va tasavvufiy axloq masalalari izchil yoritilgan. Muallif insonni ma'naviy yetuklikka eltuvchi bosqichlarni sharhlab, har bir bosqichning axloqiy va ruhiy mazmunini ochib beradi. Asarda inson qalbining poklanishi, dunyoviy hirs va illatlardan voz kechish, mehr-shafqat va adolat kabi fazilatlarni shakllantirish muhim tarbiyaviy tamoyillar sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, "Mirsod ul-ibod"da tarbiya jarayoni faqat diniy bilim bilan emas, balki insonning amaliy faoliyati va kundalik xulq-atvori bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Bu esa tasavvuf pedagogikasining hayotiy-amaliy xarakterini namoyon etadi. "Mirsod ul-ibod" asarida insonning ma'naviy kamoloti uzluksiz ruhiy tarbiya va o'zini anglash jarayoni sifatida talqin etiladi. Najmuddin Doya muridning komillikka erishishi uchun sabr, tavba, qanoat va tavakkul kabi tasavvufiy fazilatlarni egallashi zarurligini ta'kidlaydi. Muallif nafsni jilovlashni insonning eng katta ichki kurashi sifatida ko'rsatib, uning ruhiy poklanishdagi o'rnini chuqur tahlil qiladi. Shu jihatdan asarda insonning ichki dunyosini tarbiyalash masalasi markaziy o'rin egallaydi. Shuningdek, asarda inson va jamiyat munosabatlari ham tasavvufiy qarashlar asosida talqin etiladi.

Bola tarbiyasiga oid qarashlarda Yusuf Xos Hojibning **"Qutadg'u bilig"** asari[7] ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu asarda muallif adolat, aql, qanoat va davlatni insonni kamolga yetkazuvchi asosiy fazilatlar sifatida ko'rsatadi. Bola tarbiyasida ushbu fazilatlarni erta yoshdan shakllantirish zarurligi uqtiriladi. Xususan, asarda odob va axloq ilm bilan birga o'rgatilishi lozimligi ta'kidlanib, bu ikki omil ajralmas birlik sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, Kaykovusning **"Qobusnoma"** asarida[8] ota-onaning farzand tarbiyasidagi roli batafsil yoritiladi. Asarda farzandni haddan tashqari erkalatish yoki ortiqcha jazolash uning axloqiy shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlanadi. Kaykovus tarbiyada Ibn Sino kabi mo'tadillikni, ya'ni na qattiqqo'llik, na beparvolik yo'lini tanlashni tavsiya etadi. Bu qarash tasavvufiy tarbiyada ham markaziy o'rin tutuvchi "balansli tarbiya" tamoyiliga mos keladi.

---

[6] Najm al-Din Razi. *The Path of God's Bondsmen: From Origin to Return*. Translated by Hamid Algar. – New York: Caravan Books, 1982. – P. 145–149.
[7] Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig*. – Toshkent.– B. 110–210.
[8] Kaykovus. *Qobusnoma.* – Toshkent. – B. 15–55.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Fariduddin Attor **"Tazkirat ul-avliyo"** asarida[9] tarbiyani hikoyaviy-ramziy uslub orqali ifodalaydi. Asarda avliyolar hayoti misolida axloqiy fazilatlar targ'ib qilinadi. Attorning yondashuvida bola tarbiyasi bevosita nasihat orqali emas, balki **ibratli hikoyatlar va obrazli tasvirlar** orqali amalga oshiriladi.

Bu metodning pedagogik ahamiyati shundaki, bola ongiga axloqiy g'oya bevosita buyruq sifatida emas, balki hissiy va tasavvuriy ta'sir orqali singdiriladi. Attor fikricha, inson qalbi quruq nasihatni tez unutadi, lekin ibratli voqeani uzoq vaqt saqlab qoladi. Bu esa zamonaviy pedagogikadagi "vizual va emotsional o'qitish" tamoyiliga juda yaqin.

Jaloliddin Rumiy **"Masnaviy ma'naviy"** asarida[10] bola tarbiyasini chuqur psixologik va ruhiy jarayon sifatida izohlaydi. U inson qalbini "oyna"ga o'xshatib, uning tozaligi tarbiyaning asosiy sharti ekanini ta'kidlaydi. Rumiyga ko'ra, bola tarbiyasida eng muhim vosita — **muhabbat va mehr**dir.

Rumiy konsepsiyasida tarbiya uch asosiy elementga tayanadi: muhabbat, sabr va ruhiy yaqinlik. Ushbu uchlik bola shaxsida ichki muvozanatni shakllantiradi.Jaloliddin Rumiy nafs tarbiyasini inson komolotining asosiy sharti sifatida ko'rsatadi va bu o'rinda insonning o'z nafsiga qarshi kurashini eng buyuk mujohada deb biladi.Asarda tashqi dushmandan ko'ra ichki xudbinlikning xavfliroq ekanligi ilmiy-falsafiy jihatdan asoslanadi.

XULOSA

Tasavvuf manbalarida ta'lim va tarbiya masalalari, xususan, bola tarbiyasi va ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari keng tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tasavvufiy qarashlarda tarbiya inson kamolotining asosiy omili sifatida qaraladi va bu jarayon eng avvalo bolalik davridan boshlanishi zarurligi alohida ta'kidlanadi. Bola qalbining sof va ta'sirchanligi sababli unga beriladigan tarbiya uning kelajakdagi shaxsiyati va hayot yo'lini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Tasavvuf allomalari, xususan, G'azzoliy, Yassaviy, Naqshband, Navoiy va boshqa mutafakkirlar qarashlarida bola tarbiyasi axloqiy poklik, nafsni jilovlash, sabr, halollik va ilmga muhabbat asosida shakllantirilishi zarurligi qayd etiladi. Ularning ta'limotlarida tarbiya faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, balki insonning ichki dunyosini poklash, uni ezgulikka yo'naltirish va ma'naviy yetuklikka olib boruvchi jarayon sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, ustoz va ota-onaning shaxsiy namunasi, sog'lom tarbiyaviy muhit va mehr-muhabbat asosidagi yondashuv bola kamolotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Ko'rib chiqilgan yana bir muhim jihat — ta'lim jarayonini tashkil etish masalasidir. Tasavvufiy ta'limotlarda bu jarayon murakkab va tizimli bo'lib, unda ustoz-shogird munosabatlari, suhbat asosidagi o'qitish, bosqichma-bosqich rivojlantirish, amaliy faoliyatga yo'naltirish kabi tamoyillar ustuvor o'rin egallaydi.Ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishini ta'minlash asosiy maqsad sifatida belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI1.

1. Ahmad Yassaviy. Devoni Hikmat. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1992.
2. Abu Hamid al-G'azzoliy. Ihyo ulum ad-din (tanlangan boblar o'zbek tiliga tarjima qilingan). – Toshkent: Movarounnahr, 2010. – B. 78–82.

[9] Fariduddin Attor. *Tazkirat ul-avliyo*. – Toshkent.– B. 30–110.
[10] Jaloliddin Rumiy. *Masnaviy ma'naviy.* – Toshkent. – B. 60–120.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

3. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 33.
4. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.–Toshkent: G'afur G'ulom,2015.–B. 45.
5. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 112.
6. Najm al-Din Razi. The Path of God's Bondsmen: From Origin to Return. Translated by Hamid Algar. – New York: Caravan Books, 1982. – P. 145–149.
7. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent.– B. 110–210.
8. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent. – B. 15–55.
9. Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. – Toshkent.– B. 30–110.
10. Jaloliddin Rumiy. Masnaviy ma'naviy. – Toshkent. – B. 60–120.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.